

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KASANACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Bobojonova M.J

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Naimova N.A

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya 2023 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-70-son qaroriga muvoqiq aholining bandligini ta'minlash va daromadlarini ko'paytirish uchun ish beruvchilarga o'zini o'zi band qilgan shaxslarni kasanachi sifatida tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatiga jalb etishga ruxsat berildi. Kasanachi sifatida jalb qilingan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga kasanachilik faoliyati uchun nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar bilan birga o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun belgilangan imtiyoz va preferensiyalar ham qo'llaniladi. Maqolada kasanachilik nima va kasanachilikni amalga oshirishda qanday ishlar olib borilganligi to'g'risida gapirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: kasanachilik, ish haqi, foyda solig'i, shartnoma, mehnat daftarchasi, jismoniy shaxs, preferenstiyalar, soliq, kooperatsiya.

Kasanachilik nima va u qanday xususiyatlarga ega?

Kasanachilik - bu hunarmand shaxslarning mehnat shartnomalari asosida yollangan holda o'z uyida ishlab turishi, yashash hududida ishlab chiqarish yoki/va xizmat ko'rsatishdir. Kasanachilikda maxsus tashkilot va korxonalar bilan kelishuv, shartnoma asosida buyurtmalar bajariladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasanachilik usulida ishni tashkil qilish mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, qushimcha daromad topish, ish vaqtining qat'iy belgilanmaganligi, maxsus binolarga ehtiyoj bo'lmasligi kabi iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

Kasanachilik to'g'risida Nizomga ko'ra "kasanachilik" tushunchasi tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq jismoniy shaxs - kasanachining yashash joyi bo'yicha yoki unga yoki uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan boshqa binolarda ish beruvchining buyurtmalari bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kasanachi tomonidan amalga oshirilayotgan ishni anglatadi.

18 yoshga to'lgan shaxslar kasanachilikni amalga oshirishga qo'yiladilar. Ish beruvchi - kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachi uchun ishlab chiqarish binosini belgilaydigan, uni asbob-uskunalar, jihozlar, materiallar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan, bajarilgan ishni qabul qilib oladigan va unga haq to'laydigan yuridik shaxs.

Kasanachilik texnologiya jarayoni va boshqa shart-sharoitlar uy sharoitlarida butlovchi buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

imkonini beradigan sanoat tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarida korxonalar bilan korxonalarning buyurtmalari bo'yicha uyda mahsulotlar ishlab chiqarayotgan va xizmatlar ko'rsatayotgan fuqarolar o'rtasidagi kooperastiya asosida tashkil etiladi.

Kasanachining mehnat daftarchasi ish beruvchi tomonidan yuritiladi va mehnat shartnomasi amal qilishining butun davrida unda saqlanadi. Ilgari ishlamagan va mehnat daftarchasiga ega bo'lмаган kasanachi uchun mehnat daftarchasi ish beruvchi tomonidan ochiladi. Kasanachilar ishiga, qoidaga ko'ra, ishbay haq to'lanadi. Haq to'lash amalda bajarilgan ishlar uchun yoki sifati bo'yicha belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarilgani uchun amalga oshiriladi. Kasanachining ish haqi, uning tomonidan mehnat normalari va mehnat majburiyatlari bajarilgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 35,2 foizidan kam bo'lishi mumkin emas va biron-bir eng yuqori miqdor bilan cheklanmaydi.

Kasanachi ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlaydi, uning bajargan barcha ishi uchun bir hissa miqdorda haq to'lanadi va unga ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik, shuningdek tungi vaqtida ishlaganlik uchun mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etilmaydi. Kasanachilik mehnati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning pensiya ta'minotiga bo'lган huquqi ular pensiya yoshiga etganda yoki "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda boshlanadi.

Kasanachi sifatida jalb etilgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga kasanachilik faoliyati uchun nazarda tutilgan imtiyoz va preferenstiylar bilan birga o'zini o'zi band etgan shaxslar uchun belgilangan imtiyoz va preferenstiylar ham qo'llaniladi. O'zini o'zi band etgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lган faoliyat turlari 19 ta qo'shimcha faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlanib, bu toifadagi xodimlarning soni 67 tadan 86 taga etkazildi. Mazkur qaror bilan qo'shimcha faoliyat turlariga quyidagilar kiritildi:

1. Qayta ishlangan jundan kiyimlar va boshqa buyumlar to'qish.
2. Uy sharoitida loydan tandir tayyorlash.
3. Atlas va adres to'qish.
4. Mayda munchoq (biser) tikish.
5. Do'ppido'zlik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash.
6. Temirchilik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash.
7. Asalarichilik, shuningdek, asalari uyasi va ramkalarini yasash.
8. Quroqchilik usulida ko'yak, ko'rpa va yopinchiquarish tikish.
9. Qo'ziqorinlarni terish, uy sharoitlarida etishtirish va sotish.
10. Pichoq tayyorlash, charxlash va sotish.
11. Qog'ozdan qutilar, banderollar tayyorlash.
12. Uy sharoitida issiqxona mahsulotlarini etishtirish.
13. Tayyor mahsulotga etiketka biriktirish.
14. Uy sharoitida bolalar o'yinchog'i ishlab chiqarish.
15. Uy sharoitida supurgi etishtirish va tayyorlash.
16. Yassi oyoqli bolalar oyoq kiyimlarini tayyorlash.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

17. Milliy taqinchoqlar yasash.
18. Kandakorlik, miskarlik buyumlarini uy sharoitida tayyorlash.
19. Dag`al jundan gilam, ko`rpa va yostiq tayyorlash.

Davlat mulki obyektlaridan foydalanganlik uchun ijara to`lovlari 50 foiz miqdorida belgilanadi. Davlat xaridlari doirasida tuziladigan shartnomalarda budget buyurtmachilari tomonidan 50 foiz miqdorida oldindan to`lovni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunda, mazkur banddagi imtiyozlar o`ttiz nafardan ortiq kasanachilar jalb qilingan davrga tatbiq etilsin.

2023 yil 1 martdan 2026 yil 1 yanvarga qadar uch oydan ortiq muddatga o`ttiz nafardan ziyod kasanachilarni belgilangan tartibda jalb etgan va kasanachilik asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (ko`rsatilgan xizmatlarni)

realizastiya qilishdan olgan daromadlari jami daromadining 60 foizidan ko`prog`ini tashkil etgan tadbirkorlik sub`ektlari uchun:

- foyda solig`i va aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi 50 foizga kamaytirilgan holda, biroq tadbirkorlik sub`ekti tomonidan kasanachilarga to`langan ish haqi miqdorining 1,5 baravaridan oshmagan miqdorda hisoblanadi;
- davlat mulki ob`ektlaridan foydalanganlik uchun ijara to`lovlari 50 foiz miqdorida belgilanadi;
- davlat xaridlari doirasida tuziladigan shartnomalarda byudjet buyurtmachilari tomonidan 50 foiz miqdorida oldindan to`lovni amalga oshirish nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
2. Supiyevna, B. M. (2024). O`ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO`LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
3. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
4. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARING ORNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
5. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
6. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

8. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
9. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
10. Ibodulloevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANТИRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
11. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszlosci*, 53, 524-531.
12. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.
13. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
14. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
15. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.
16. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA INNOVATION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA INVESTİTSİON SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.
18. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
19. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszlosci*, 54, 857-866.
20. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
21. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
22. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBЛАSH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
23. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

24. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
25. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
26. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
27. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
28. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
29. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
30. Sadilloyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
31. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 160-166.
32. қизи Раҳмонқуловна, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
33. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.
34. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
35. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.
36. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
37. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
38. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSİYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

39. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJUY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
40. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
41. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.
42. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisATion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATcHES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.
43. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.
44. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.

